

## “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUV - TARBIYAVIY JARAYONLARIDA AMALIY QO‘LLANISHI

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.**

**kabraxonovna@mail.ru Tel: +998974451446**

**Rajabova Sarvinoz Shovkatjon qizi**

**Nizomiy nomidagi TDPuning Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabasi.**

**sarvinozr1209@gmail.com Tel: +998903934099**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331458>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining umumta‘lim maktablarida, xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda amaliy qo‘llash imkoniyatlari tahlil etilgan. Shu bilan birga, asar parchalari asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fikrlash madaniyatini o‘stirishga qaratilgan metodik tavsiyalar berilgan. Maqolada, shuningdek, asarning hozirgi ta‘lim talablari va kompetensiyalariga uyg‘unligi, pedagogik-psixologik jihatdan qanday foydalanish mumkinligi ham ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiy Guliston, axloqiy tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik jarayon, psixologik ta‘sir, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat, nutqni rivojlantirish, Abdulla Avloniy, didaktik materiallar, milliy qadriyatlar.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlod tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ma‘naviy barkamol, vatanparvar, bilimli va axloqli yoshlarni voyaga yetkazish – davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma‘naviy yetuk yosh avlod hal qiluvchi kuchga aylanishi zarur” [1]. Bu esa yoshlarni har tomonlama sog‘lom va komil inson qilib tarbiyalashda ulug‘ allomalarimizning boy ma‘naviy merosidan keng foydalanishni taqozo etadi. Bu borada Abdulla Avloniy ijodi, xususan, uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda bayon etilgan axloqiy va ma‘naviy tushunchalar o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda keng qo‘llanilishi, yoshlarning nutqiy rivojiga hamda axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda bu asarning pedagogik va psixologik imkoniyatlari beqiyosdir. Bu fikrlar O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ustuvor vazifalar bilan ham uzviy bog‘liqdir [2]. Avloniy asarining o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi amaliy ahamiyati uning har bir bobida jamlangan ma‘naviy-axloqiy g‘oyalar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Ilm” yoki “Axloq” kabi bo‘limlar darslik materiallarini boyitishga, mavzularni hayotiy misollar bilan bog‘lashga imkon beradi. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida bu kabi yondashuvlar o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularda mustahkam hayotiy va axloqiy qarashlar shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridan foydalanish orqali o‘qituvchi faqatgina ma‘lumot beruvchi emas, balki tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu esa bugungi kundagi ta‘limda zarur bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuv bilan hamohang bo‘lib,

o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon qilishga undaydi. Mazkur asar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga turli metodlar, masalan, matnli tahlil, savol-javob, rolli o'yinlar, muhokamalar orqali bilim berish ularning ijodkorligini, nutqiy faolligini va axloqiy qadriyatlarga sadoqatini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatlari bilan Avloniy merosi ta'lim jarayonining ichki tarkibiy qismiga aylanishi zarur. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'z mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarga nafaqat axloqiy tushunchalarni singdiradi, balki ularda fikrlash, tahlil qilish, nutqiy ifoda qilish, muomala madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu asarning har bir bobida berilgan hayotiy masalalar, pand-nasihatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli va qiziqarli shaklda yoritilgan bo'lib, ular orqali ta'lim berish samaradorligi oshadi. Masalan, "Axloq" bobida Avloniy to'g'ri so'zlash, halollik, odob, rostgo'ylik, hurmat va shaxsiy mas'uliyat kabi fazilatlarni muhim deb hisoblaydi. U bu fazilatlarni inson kamolotining asosi sifatida ko'rsatadi. O'qituvchi ushbu bo'limdagi mazmunni o'quvchilarga sodda tilda yetkazish bilan birga, uni darslikdagi mavzular bilan bog'lab, nutqiy mashg'ulotlar orqali mustahkamlashi mumkin. Masalan, o'quvchilardan axloqli inson qanday bo'lishi kerakligi haqida hikoya tuzish, real hayotdan namunalar keltirish yoki rolli o'yinlar tashkil qilish orqali ularning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, asarning "Vatanni sevmok" bobida berilgan ijtimoiy-tarbiyaviy fikrlar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, sadoqat, mas'uliyat kabi tuyg'ular shakllanadi. Mazkur fikrlar o'quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini barvaqt shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Asar matnlari bilan ishlash jarayonida o'qituvchi multimodal yondashuvdan foydalansa — ya'ni matnni o'qish, muhokama qilish, sahnalashtirish, rasm chizish, roliklar tayyorlash kabi metodlarni uyg'unlashtirsa — bu o'quvchilarning nafaqat nutqini, balki ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, "vijdon", "mehr-shafqat", "halollik" kabi tushunchalar ustida muhokamalar o'tkazish orqali o'quvchilar psixologik jihatdan ijobiy shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Shu tariqa, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda qo'llanilishi orqali nafaqat axloqiy tarbiya, balki nutqiy, psixologik, ijodiy, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Asarning zamonaviy ta'lim maqsadlariga mosligi uni amaliy jihatdan o'qituvchilar faoliyatiga joriy etishni talab etadi.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini o'quv-tarbiyaviy jarayonda samarali qo'llash uchun uni boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga moslab, tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish muhimdir. Asardagi "Vijdon", "Odob", "Adolat" kabi bo'limlar asosida savol-javob, rolli o'yinlar, suhbatlar tashkil etish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish mumkin. Shu bilan birga, "Bu gapdan qanday xulosa chiqarish mumkin?", "Agar sen bo'lganingda nima qilarding?" kabi topshiriqlar orqali yozma nutqni shakllantirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Asardagi axloqiy tushunchalarni hayotiy misollar bilan muhokama qilish, kichik sahna ko'rinishlari tayyorlash orqali o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar shakllantiriladi. Shuningdek, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi hikmatlarni o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va samarali qilish maqsadida, ularni guruhlariga bo'lib, kichik loyihalar yaratishga yo'naltirish mumkin. Masalan, har bir guruhga asardagi biror mavzuni tanlab, uni hayotda qanday qo'llanilishini tushuntirish vazifasini berish orqali o'quvchilarning yaratqonlik va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'z nutqlarini mantiqiy va ravon tarzda ifodalashiga yordam beradi. [3] Bundan tashqari, asarda keltirilgan axloqiy va tarbiyaviy

qadriyatlarini o'quvchilarga ko'rsatib, ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otish muhimdir. Misol uchun, o'quvchilarni o'z sinfi va maktabi ichida odob-axloq, vijdonli bo'lish va yaxshilik qilishga undash orqali, ular o'zlarining ijtimoiy roli va ahamiyatini his qilishadi. [4] Natijada, o'quvchilarning nafaqat til, balki axloqiy qadr-qimmatlari ham shakllanadi va bu ularni kelajakda har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida jamiyatga foyda keltiradigan yuksak insonlar bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, ushbu asar asosida o'quvchilar bilan bahs-munozara darslarini tashkil etish ham samarali natija beradi. Bahs-munozara jarayonida o'quvchilar muayyan axloqiy tushunchalarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishadi, o'z fikrlarini asoslab aytish, boshqalarni tinglash, savol-javoblar orqali nutqini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu nafaqat og'zaki nutqni, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Asarda uchraydigan ijtimoiy xatti-harakatlar, axloqiy me'yorlar haqida o'quvchilar mustaqil fikr bildirganlarida, ular o'z hayotiy tajribalari bilan bog'laydi, shaxsiy dunyoqarashi kengayadi. Bu kabi dars shakllari orqali o'quvchi faqat bilim egallabgina qolmay, balki o'zining fikrlash va ifoda qilish madaniyatini ham yuksaltiradi. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llashda ijodiy yozuv topshiriqlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilardan asarda uchraydigan axloqiy mavzular asosida kichik insho yoki voqeaviy hikoya yozish so'ralganda, ular o'z fikrlarini yozma tarzda izchil, mantiqiy va mazmunli ifodalashga odatlanadilar. Bu orqali nafaqat yozma nutq ko'nikmalari shakllanadi, balki axloqiy tushunchalar chuqurroq anglanadi, hayotiy misollar bilan boyitiladi. Shu bilan birga, yozuv jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi kengayadi, fikrlari aniq va ravon ifodalanadi. Bu esa ularning yozma nutqini bosqichma-bosqich mukammallashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta. Asarda ilgari surilgan halollik, vijdon, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi axloqiy fazilatlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi va shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida ushbu asardan foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z pozitsiyasini ifodalash, yozma va og'zaki nutqni boyitish, shuningdek, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini anglash ko'nikmalari shakllanadi. Matn asosida suhbatlar o'tkazish, ijodiy topshiriqlar berish, rol o'yinlar tashkil etish kabi usullar o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni faol, bilimli va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shuningdek, asardan olingan parchalarni dramatisatsiya qilish, kichik guruhli muhokamalar uyushtirish orqali o'quvchilar orasida hamkorlikda ishlash, fikr almashish va tinglash madaniyati ham rivojlanadi. Shu sababli, asarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga samarali qo'shish dolzarb bo'lib, u nafaqat til o'rgatish, balki komil inson tarbiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – yangicha tafakkur va yangicha yondashuv asosida taraqqiyot sari intilayotgan xalqimizning ezgu orzu-umidlarining ifodasidir // Xalq so'zi, 2021-yil, 29-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, 3-modda.

3. Qodirova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot madaniyatini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni. – "Ilm sarchashmalari" jurnali, 2023-yil, 1-son.
4. Inoyatova Sh., Karimova R. Bosh-lang'ich ta'lim metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. Nishonova S. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.